

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI

TOSHKENT ARXITEKTURA - QURILISH INSTITUTI

ARXITEKTURA FAKULTETI

«Landshaft dizayni va interyeri» kafedrası

5150900 – «Dizayn» yo'nalishi bo'yicha

bakalavr bitiruv malakaviy ishining

TUSHUNTIRISH XATI

Mavzu: Zamonaviy avtomobil bozorining dizayn
konsepsiyasi.

Bitiruvchi: Isanbiyeva Damira Baurjanovna.
(F.I.SH.)

(imzo)

Rahbar: Baxayeva U.M

(F.I.SH.)

(imzo)

Toshkent – 2018

TOSHKENT ARXITEKTURA - QURILISH INSTITUTI

Arxitektura fakulteti Dizayn 5150900 yo'nalishi

6-14 Du guruhi

«TASDIQLAYMAN»

«Landshaft dizayni va
interyeri» kafedrası mudiri
Matniyazov Z.E

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha

T O P S H I R I Q

BITIRUVCHI: Isanbiyeva Damira Baurjanovna

(F.I.SH.)

1.Bitiruv malakviy ishi (BMI) mavzusi: Zamonaviy avtomobil bozorining
dizayn konsepsiyasi

«___» _____ yildagi № ___ buyruq bilan tasdiqlangan

2. BMI loyihasini bajarish uchun ma'lumotlar

___3.Tushuntirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:

a) Arxitektura qismi: Zamonaviy avtomobil bozorining dizayn konsepsiyasi

b) Badiiy-dizayn qismi: avtomobil bozorining badiiy yechimi va interyeri,
bozor atrofining landshaft dizayn yechimi

d) Atrof- muhit ekologiyasi qismi: avtomobil bozorining atrof - muhit va
ekologiyaga ta'siri avtomobil bozorining ekologiyasi.

e)Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati: _____

4. Grafik material ro'yxati (majburiy chizmalar va masshtab ko'rsatilishi bilan) _____

5. Diplom loyihasi qismlari bo'yicha konsultantlar

№	Diplom loyihasi qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining familiyasi
1.	Arxitektura				
2.	Badiiy-dizayn				
3.	Atrof muhit ekologiyasi				

Topshiriq berilgan sana _____

BMI loyihasini topshirish _____

Bitiruvchi _____
(F.I.SH.) (imzo,)

Rahbar asistenti _____
(F.I.SH.) (imzo)

Rahbar asistenti _____
(F.I.SH.) (imzo)

BMI loyihasi rahbari _____
(F.I.SH.) (imzo)

Kafedra mudiri _____
(F.I.SH.) (imzo)

MUNDARIJA

1. Kirish	5
2. Arxitektura qismi	8
3. Badiiy qism	16
4. Atrof muhit ekologiyasi	22
5. Xulosa	28
6. Foydalanilgan adabiyotlar	30
7. Ilova	32

KIRISH

Xalqimiz har yili Mustaqillik bayramini ulkan yutuqlar, muvaffaqiyatlar bilan kutib oladi. Eng ulugʻ, eng aziz ayyomga munosib tuhfa hozirlash, yurtimizni yanada obod va farovon etish maqsadida keng koʻlamli bunyodkorlik ishlari amalga oshiriladi.

Bu yil ham ulugʻ bayramimiz arafasida mamlakatimizning barcha hududlarida yangi sanoat korxonalari, taʼlim va tibbiyot muassasalari, sanʼat va sport koshonalari, turar joylar, yoʻllar, koʻpriklar qurib bitkazildi. Xalqimizga xos ezgu anʼanalarga muvofiq bu inshootlar xosiyatli va xayrli kunlarda – Mustaqillik bayrami arafasida foydalanishga topshirilmoqda.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib oʻtgan taraqqiyot yoʻlining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konʼyunkturasi keskin oʻzgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal surʼatlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va roʻyobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Shuning uchun bu masala har doim davlatlarning uzoq muddatli rivojlanishini taʼminlashga qaratilgan barcha strategiyalarda aks ettirilgan. Oʻzbekiston Respublikasining [2017-2021](#) yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha “Harakatlar strategiyasi” ham bu borada istisno boʻlmadi.

Oʻzbekiston Respublikasining [2017-2021](#) yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha “Harakatlar strategiyasi”ning toʻrtinchi **“Ijtimoiy sohani rivojlantirishning** ustuvor yoʻnalishi”da aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yoʻl-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan taʼminlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga koʻrsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini

oshirish, sogʻliqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha taʼlim muassasalarining qulayligini taʼminlash, umumiy oʻrta taʼlim, oʻrta maxsus va oliy taʼlim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Toshkent viloyatida ham koʻpkina oʻzgarishlar yuz berdi. Prezidentimiz rahnamoligida bu yerda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi va bu boradagi ishlar izchil davom etmoqda. Zamonaviy qiyofaga ega boʻlmoqda, uzoqni oʻylab tuzilgan reja asosida muttasil rivojlanib bormoqda. Mustaqillik sharofati bilan prezidentimiz raxnamoligida koʻplab xorijiy davlatlar bilan savdo-sotiq ishlari olib borildi. Bu esa yanada rivojlanishimizga turtki boʻladi, desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Bugungi kunda tijoratdagi muvaffaqiyat biznes yutugʻi bilan oʻlchanadi. Lekin, boshqa tarafdin, tizimli savdo boshqaruvida, tijorat va marketing boʻlimi oʻrtasidagi samarali aloqalarni yoʻlga qoʻyish va eng zarur sotish kanallarini qidirib topish tizimli menejer yondashuviz amalga oshirilishi qiyin hisoblanadi. MBA professionalning “Savdo-sotiq” yoʻnalishidagi dasturi bir tomondan biznes yuritishning vakolatlarini rivojlantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tarafdin, strategik jihatdan muhim funksional masalasiga shoʻngʻishga imkon beradi, tashkilotning tijorat faoliyati boshqaruvi, savdo tizimini ishlab chiqish, “old qator” samaradorli boʻlimlarini yaratish sohasida eng yirik amaliyotchilarni qarab chiqadi.

Shunday ekan mamlakatimizda bozor islohatini rivojlantirish tobora rivojlanib bormoqda. Oʻzbekistonda Avtomobil sanoati 90-yillar boshidan paydo boʻldi. 1992 yillar OʻzR.da Janubiy Koreyaning "DEU" korporatsiyasi bilan Asaka shahrida yillik loyiha quvvati 200 ming dona yengil avtomobillar ("Damas", "Tiko", "Neksiya") ishlab chiqaradigan "OʻzDEU-avto", qoʻshma korxonasi barpo etildi. Asaka avtomobil zavodida "Damas" mikroavtobuslarini seriyali ishlab chiqarish 1996 yil martdan yoʻlga qoʻyildi, 1996 yil 19 iyulda

zavodning rasmiy ochilishi va xalqaro taqdimoti o'tkazildi. 1996—99 yillarda "O'zDEUavto" qo'shma korxonasida 200 mingdan ortiq avtomobil, 1999 yilda jami 60 mingga yaqin avtomobil ishlab chiqarildi ("Neksiya" — 28259, "Tiko" — 16380, "Damas" — 13663 dona). Chet elga 14 mingdan ortiq avtomobil eksport qilindi. Shuningdek 1995 yil "O'zavtosanoat" uyushmasi va Turkiyaning "Koch xolding" kompaniyasi o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra, Samarqand shahrida yillik loyiha quvvati 5 ming donadan ziyod avtobus va turli yuk mashinalari ishlab chiqarishga mo'ljallangan, umumiy qiymati 65 mln. AQSH dolla-riga teng "SamKochAvto" qo'shma korxonasini bunyod etildi. O'rta Osiyoda avtobus va turli yuk mashinalari ishlab chiqaradigan mazkur yagona korxonani ishga tushirishga mo'ljallangan rasmiy takdimot marosimi 1999 yil 16 martda bo'lib o'tdi. Hozircha bu zavodda tayyorlanayotgan mashinalar uchun butlovchi va ehtiyot qismlarning 25% O'zbekistonda 136 ishlab chiqarilmoqda. Kelgusida avtomobil qismlarini ishlab chiqarish tobora kengaytiriladi. Asaka avtomobil zavodida ham dast-labki butlovchi va ehtiyot qismlarning 15% mahalliy korxonalarda tayyorlan-gan bo'lsa, 1999 yilga kelib bu ko'rsatkich 55%ga yetdi. Respublika avtomobillar uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish dasturini amalga oshi-rish maqsadida o'nlab qo'shma korxonalar tashkil etildi. Ular Janubiy koreyalik sheriklar ishtirokida tashkil etilgan zavodlar: "O'zkoramKo", "O'z-Tong Xong", "O'z-Dong Yang", "O'z-Don-gju Peint Kom-pani", "O'z-Sam Yang" va boshqa 1998 yilda "O'zavtosanoat" uyushmasi Xalqaro avto transport ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkilotlariga a'zo etib qabul qilindi.

O'zbekistonda o'tgan yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 42,6% ko'proq avtomobil ishlab chiqarildi. Bu haqda davlat statistika qo'mitasima'lumotlariga tayanib «Spot» xabar berdi. Shu yilning yanvar-fevrali yakunlariga ko'ra, mamlakatimizda 24 695 dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi, 2017-yil yanvar-fevral oyida esa bu ko'rsatkich 17 315 taga teng edi. Shu tarzda o'sish 42,6 foizni tashkil etdi.

ARXITEKTURA

BO'LIMI

Rahbar:

(F.I.SH., imzo)

Bitiruvchi:

(F.I.SH., imzo)

Arxitektura qismi

Zamonaviy avtomobil bozorining dizayn konsepsiyasi”Yangiyo’l shahrida markaziy bozoridan 4-5 km uzoqlikda joylashgan.Bo’sh turgan joyga joylashgan.

Men bitiruv malakaviy ishi mavzuyimga aynan “Zamonaviy avtomobil bozorining dizayn konsepsiyasi” loyihasini olishdan maqsad, “Sergeli avtomobil bozori” ortiqcha tirbandliklarga sabab bo’lib, aholiga qator noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu maqsadda hukumat bozorni Toshkent viloyati hududiga ko’chirish bo’yicha takliflarni ishlab chiqishni vazifa qilib topshirildi . Mazkur takliflar O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 – yil 10 – iyul kuni Sergeli tumaniga tashrifi doirasida muhokama qilingan.

“Yangiyo’l tumanidagi zamonaviy avtomobil bozorining dizayn konsepsiyasi” loyihasini loyihalashda quyidagi “Qurilish me’yorlari va qoidalari” hujjatlariga asoslanib ishlab chiqilgan:

1. QMQ 2.08. 02-09. “Jamoat binolari va inshootlari”
2. QMQ 2.03. 10-95. “Tomlar va tomqoplamalar”
3. QMQ 2.01.03-96. “Zilzilaviy hududlarda qurilish”
4. QMQ 2.07.01-94 “Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy, geologik ma’lumotlar”.

KONSTRUKTIV YECHIMI

Har bir loyihalalanayotgan bino konstruktiv yechimga ega bo’lishi kerak. Bino mustaxkamligi va chidamliligi konstruktiv yechimga bog’liq. Bino konstruksiyasiga qo’yiladigan talablar quyidagicha:

- Funksional talab – bino qaysi jarayonga mo’ljallangan bo’lsa, shu jarayonning talablariga to’la javob berishi kerak;
- Texnik talablar – mustaxkamlik talablariga to’la javob berishi kerak. bunda loyihaaning to’g’ri tanlangani, atmosfera ta’siriga chidamliligi va seysmik talabga to’liq javob berishi kerak;

- Arxitekturaviy-badiiy talab – binoning ichki va tashqi ko'rinishi barcha talabga javob berishi kerak.

Binoning konstruktiv elementlari: poydevor, devor, zinalar, parda devorlar, eshik va derazalar, ustunlar va h.k. “Yangiyo'l tumanidagi zamonaviy avtomobil bozorining dizayn konsepsiyasi” loyihasi taklif qilinayotgan hudud, eng avvalo, konstruktiv jihatdan o'rganib chiqildi.

- Qurilish hududi – Yangiyo'l tumani
- Iqlimi – kontinental
- Hududning zilzila bardoshliligi – 7 ball

Bino konstruktiv jihatdan mustahkamlik darajasi bo'yicha karkasli va temir betondan bo'lsa, to'liq ravishda talabga javob beradi. Avtomobil bozori binosida ham karkasli, ham temir beton konstruksiyasidan foydalanildi. Kompleks loyihasini konstruksiyalashda QMQ me'yoriy hujjatlar talablarini hisobga olgan holda rejalashtirildi. Eng avvalo, asos grundi o'rganib chiqildi, geodezik olimlar tomonidan hudud ko'rib chiqildi. Asos tuprog'i laboratoriyada o'rganiladi. Zamin gruntining yuk ko'taruvchanligi, seysmik jihatdan mustahkamligi hisoblandi.

Poydevor yer osti qismiga bog'langan bo'lib, u barcha tushadigan og'irlikni qabul qilib, asosga uzatadi. Asos esa yerga tarqatadi. Poydevor ostida joylashib, binoning og'irligini o'ziga qabul qiluvchi tuproqning massasiga asos deb ataladi. Asoslar 2 xil bo'ladi: tabiiy asos va sun'iy asos, bu loyiha ishi tabiiy asosga egadir. Tabiiy asos deb, qurilgan binoning og'irligini o'zining tabiiy holatida ko'tarib tura olishi mumkin bo'lgan poydevor osti tuprog'iga aytiladi.

Asosiy konstruksiya temir-beton karkas va g'ishtdan. Temir beton konstruksiyasi ichki chizmalarga asosan qilingan. Eng yuqori binosi bilan 4 qavatni tashkil etib, har bir qavat deformatsiya choklari bilan bo'lingan. Binoning yuk ko'taruvchi ustunlari (kollona) monolit temir-betondan loyihalangan. Bino poydevori yuk ko'taruvchi g'ishtli devor tagida B20

(M250) sinfiga oid portlandsementda tayyorlangan o'zaro kesishgan monolit temir-beton lentasimon, ustunlar osti esa ustunsimon qilib loyihalangan. Rigellar (ustunlar) monolit temir-betondan tayyorlangan bo'lib, kesimlari to'g'ri to'rtburchak shaklida 600x600 mm. qilib, B25 klassdagi betonlardan tayyorlanadi. Qavatlar aro yopmalar esa monolitdan, bog'lovchi to'sinlar ham qurilish maydonida temir-betonlardan monolit usulda o'rnatiladi. Binoning umumiy balandligi – 18.40m bo'lib, uzunligi – 84 m, eni esa 38 m .

Devorlar binoning asosiy konstruktiv elementi bo'lib, ular tashqi muhitdan himoyalashdan tashqari o'ziga tushadigan yukni qabul qilib poydevorga uzatuvchi qurilma hisoblanadi. Tashqi devorga qo'yiladigan talablar: qor va yog'ingarchilik ta'siriga chidamliligi, shamol tezligiga ta'siri, quyosh radiatsiyaga bardoshliligi, temperatura ta'siri, seysmik ta'sir va boshqalar. Devorlar asosan materialiga qarab paxsadan, g'ishtdan, yog'ochdan, betondan tayyorlanadi. Devorlar 3 turga bo'linadi: yuk ko'taruvchi, o'zini- o'zi ko'tarib turuvchi va osma devorlar.

G'ishtli binolarni seysmik mustahkamligini oshirish uchun bir qancha tadbirlar o'tkaziladi: 1- seysmik kamarlar ishlatiladi, seysmik kamar balandligi minimum 15 sm. Eni asosan devor eniga bog'liq, agar devor 2 yoki undan ortiq g'isht bo'lsa, kamar eni devor enidan kichikroq bo'lishi mumkin.

Har bir qavat orasida qavatlar aro yopmalardan foydalanilgan. Qavatlar ora yopmalar – binoning asosiy konstruktiv elementi bo'lib, uni balandligi bo'yicha qavatlarga ajratib turadi. Qavatlar ora yopmalarga qo'yiladigan talablar:

- Mustahkamlik;
- Doimiy va vaqtinchalik yuklar ta'siriga chidamlilik;
- Tovush o'tkazmaslik;
- Suv va bug'lar o'tkazmaslik;
- O'tga chidamlilik va boshqa talablar.

POYDEVORLAR

Poydevorlar – yer osti konstruksiyalari boʻlib, oʻzidan yuqorida turgan konstruksiyalar ogʻirliklarini qabul qilib, gruntlarga uzatib beruvchi konstruksiyalardir. Poydevorga yuqoridan devor va ustunlarning xususiy ogʻirligi, pastdan esa zaminning teskari bosimi taʼsir etadi.

Inshoot va gruntga mos poydevor tanlash loyihalashtirishning muhim masalalaridan biridir. Zamin va poydevorlarning bir necha variantini texnik iqtisodiy analiz qilish yoʻli bilan uning ishchi varianti qabul qilinadi. Poydevorlar yetarli darajada mustahkam, puxta, sovuqqa va yer osti suvlarining agressiv taʼsiriga chidamli boʻlishi kerak. Poydevorlarning tarxdagi oʻlchamlari shunday olinishi kerakki, yuqoridan tushayotgan hisobiy yuklar taʼsirida poydevor ostki sirtida hosil boʻladigan oʻrtacha bosim, gruntga beriladigan bosimdan ortib ketmasin poydevorning choʻkishi normada koʻrsatilgan darajada boʻlishi kerak.

Inshoot zamini deganda yuqoridan tushayotgan yukni qabul qiladigan hamda shu yuk taʼsirida kuchlanish va deformatsiya holatida boʻladigan grunt massasi tushuniladi. Zamin qancha kam va tekis deformatsiyalansa, uning qurilish sifatlari shuncha yuqori boʻladi inshootda qoʻshimcha kuchlanishlar shuncha kam hosil boʻladi.

Har qanday poydevor loyihasida ikkita xarakterli tekislik boʻladi, inshoot tayanuvchi ustki sirt (ustki tekislik) hamda grunt bilan tutashib turuvchi ostki sirt (ostki tekislik). Poydevorlar chuqurligi, yuk taʼsirida ishlash xarakteri, konstruktiv shakli, materiali, vazifasi hamda ishlanish uslubiga koʻra bir necha turlarga boʻlinadi. Chuqurligiga koʻra sayoz va chuqur poydevorlar boʻladi. Loyiha shakliga koʻra alohida, yaxlit lentasimon, massiv, aralash va qoziqli poydevorlar boʻladi. Ushbu loyiha poydevori lentasimondir

DERAZA VA ULARNING KONSTRUKTIV YECHIMI

Xona ichiga tabiiy yorugʻlik devordagi vertikal – tomlardagi gorizantal joylashgan derazalar orqali tushadi. Derazalar qurilish normalariga asosan ishlab chiqiladi. Deraza materiali yogʻoch, temir – beton, plastic va

alyumindan bo'lishi mumkin. Derazalar ochilish usuliga qarab ham bir necha turlarga bo'linadi:

- 1 tabaqali
- 2 tabaqali
- 3 tabaqali
- Surilib ochiladigan
- Tabaqalar yuqori va pastga ilingan
- Jalyuzali

Xozirgi zamonaviy arxitekturada derazalardan o'zgacha usulda qo'llanilmoqda. Loyiha derazalari plastikdan.

POL VA ULARNING KONSTRUKTIV YECHIMI

Bino loyihalalanayotganda pol va ularning konstruktiv yechimi ham ko'rib chiqilgan. Pollar to'g'ridan -to'g'ri oraliq yopmalar ustidan, podvalsiz binolarimizda esa to'g'ridan- to'g'ri grunt ustidan pollar tayyorlanadi. Pollarning yuzasi qoplama yoki haqiqiy pol deyiladi. Pollarning turlari ham ko'p: yog'och taxtali pollar, lenolium pollar, keramik pollar, mozaykali pollar va boshqalar.

Agar bino podvalsiz bo'lsa, u holda o'lchami 25x25 sm bo'lgan tumbalar ustiga lagalar qo'yib qoqib chiqiladi. Taxta pollar shpuntlarining shakli to'rtburchak, doira yoki trapetsiya shaklida bo'lishi mumkin.

ZINALAR

Zinalar qavatlar orasidagi aloqani amalga oshirishga hizmat qiluvchi asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalardandir. Bundan tashqari zinalar tabiiy ofat, yong'in va avariya vaqtida kishilarni binodan tez evakuatsiya qilish hizmatini bajarishi kerak. Zinalar vazifasiga qarab quyidagi hillarga bo'linadi: Asosiy va yordamchi zinalar, qavatlar orasida kishilarning kundalik

ommaviy qatnovi va binodan tashqariga chiqish uchun xizmat qiladigan zinalar.

Yordamchi zinalar – o't o'chirishda, avariya vaqtida foydalaniladigan, chordoqqa chiqish va yerto'laga tushish uchun xizmat qiladigan zinalar kiradi.

Zinalar qiya joylashgan marshlar, gorizantal supachalar va harakat xavfsizligini ta'minlovchi tutqichlardan iboratdir. Zina devorlari yetarli darajada o'tga chidamli bo'lgan maxsus xonalarda zina kataklarida quriladi. Binodagi zinalarining soni, joylashishi, o'lchamlari, qabul qilingan binoning arxitektura – tarxiy yechimiga, qavatlar soniga odamlar harakati oqimining shiddatiga (intensivligiga) bevosita bog'liq.

TOMLAR VA TOM QOPLAMALARI

Binoni ustki qismini tashqi muhitdan tomlar va tom qoplamalar himoya qiladi. Tomlar shakli, nishablarining qanday qiyalikda bo'lishi, binoning tarxdagi o'lchamlariga va ko'rinishiga, tom yopmasining materialiga, suvni tushirish usuliga, iqlim sharoitiga, texnik-iqtisodiy sharoitlariga hamda bino arxitekturasiga oid mulohazalarga bog'liqdir. Tom va tom yopmalarining shakli bir nishabli va ikki nishabli bo'ladi. Shuningdek to'rt nishabli, gumbazsimon qubba, konussimon va boshqa xil tomlar ham bo'ladi.

Nishablarning bir-birini qiya holda kesib o'tishidan turtib chiqqan burchak qovurg'a (rebro) yoki ichkariga kirgan burchak yondova hosil qiladi. Bir tomning hamma nishablari, odatda, bir xil qiyalikda bo'lishi kerak. Tom va tom yopmalarining shakli imkoniyat darajasida oddiy bo'lishi va imkon boricha yondovasiz bo'lishi kerak, chunki yondova tomning mustahkam qismi hisoblanadi va doimiy tekshirib, qarab turishni talab qiladi.

Tom va yopmalar tomlar nishablarining qiyaligi nishab qiyaligi bilan gorizont orasidagi uning gorizantal holatiga nisbati bilan, ya'ni protsentlarda (%) yoki kasrlarda ifodalangan qiyalik burchagining tangensi bilan o'lchanadi.

Tom va tomyopma tomlar qiyaligiga qarab ikki guruhga bo'linadi:

- qiyaligi 5 % va undan ortiq bo`lgan nishab tomlar;
- qiyaligi 0 dan 5 % gacha bo`lgan tekis tomlar.

Chordoqning balandligi uning ichida bemaolol yurish imkoniyatidan kelib chiqqan holda o`rtacha 1,6 m dan kam bo`lishi mumkin emas. Hozirgi kunga kelib tom yarmalarining ham turli ekologik toza va chidamli turlari ishlab chiqarilmoqda.

BADIIY-DIZAYN

BO'LIMI

Ma'sul rahbar: Baxayeva U.M _____
(F.I.SH) (imzo)

Bitiruvchi: Isanbiyeva D.B _____
(F.I.SH) (imzo)

Binoning tashqi va ichki bezagi

“Yangiyo’l tumanidagi zamonaviy avtomobil bozorining dizayn konsepsiyasi” yechimini boshlashdan oldin ushbu mavzu yuzasidan ma’lumotlar to’plandi, avtomobil bozorlari to’g’risida umumiy tushuncha hosil qilindi. Ishni boshlash davomida turli eskizlar tayyorlandi.

Arxitektura dizayniga san’at , madaniyat va siyosat timsoli sifatida qarash mumkin. Sohibqiron bobomiz aytganlaridek, “ Agar bizning kuch qudratimizga shubxa qilsangiz biz qurgan imoratlarga qarang ” degan edilar.

Arxitektura dizayni ham huddi interyer dizayni kabi o’z uslublariga va ishlatiladigan elementlariga egadir . Vaqt o’tishi bilan uslublar ham o’zgara boshladi , har bir davrning o’z uslublari mavjud .

Binoning chiroyli va o’ziga hos tarzi zamonaviy arxitektura talabidir . Binoning chiroyli tarzini yaratish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etgan binoning o’ziga xosligini yaratishdir .

Mazkur bino loyihalaniyotganda uning tarz yechimiga alohida e’tibor qaratilgan . Binoning asosiy qismini oyna bilan qoplangan . Bunda Germaniya firmasi SCHUCO ishlab chiqaradigan shisha panellardan foydalanilgan.

Bino joylashuviga ko’ra “Toshkent shox” ko’chasiga old tarsi bilan qarab turadi . Bino aynan shunga ko’ra odamlarni zamonaviy uslubda kutib oladi . Ya’ni hovli qismini binoning o’zi o’rab turadi . Ko’cha tarafga esa faqat binoning tahqi devorlari ko’rinib turadi .

Binoning shimoliy qismida avto turargoh joylashgan . Binoning tashqi ko’rinishi zamonaviy uslubda bo’lib u barcha talablarga javob beradi . Binoning usti qismi panellar bilan qoplangan. Binoning ko’rinishi modern va hi – tech uslublarining uyg’unlashuvidan kelib chiqqan .

Interyer yechimi

Avtomobil bozori binosining o'z ichiga sug'urta qilish , notarius , GAI xizmatlarini o'z ichiga oladi. Interyerning atmosferasi to'liq mukammallik tuyg'usini uyg'otishi kerak . Bu yerda hammasi uyg'un holda bo'lishi kerak : hajm va chiziqlar , o'lcham va mutanosibliklar , rang va kontrast , shu bilan bir qatorda bino ichida harakatlanish uchun keng koridorlar .

Rang yechimi interyerning muhim elementlaridan biri bo'lib hisoblanadi . Rang barcha pardoqlash materiallari va jihozlarda namoyon bo'ladi . Xonalarning qulay va shinam bo'lishi , yoki aksincha sovuq va o'zidan itaruvchi bo'lishi ko'p hollarda ayniqsa ranglarning to'g'ri taqsimlanganligiga bog'liq. Shu bilan birga rang interyerda eng ko'p o'zgaradigan elementdir .

Binoning ichki va tashqi tomondan yoritish

Yoritilganlik kishilarga ruhiy ta'sir o'tkazgani sababli bino bezagida alohida o'rin egallaydi . Binoni tabiiy yoritilishiga alohida e'tibor qaratilgan . Keng katta derazalar binoga o'ziga xos ko'rinish berib , ichki muhitni kengaytirib ko'rsatadi va yoritib beradi . Yangi qurilish materiallarining payo bo'lishi quyosh nuridan faqat xonalarni yoritish uchungina emas , balki shu xonalarning ranglarga ta'siridan ham foydalanish imkonini beradi .

Sun'iy yoritish uskunalari bino ichida va tashqarisida joylashtirilgan bo'lib , interyer va landshaftga bezak elementlardan iboratdir.

Sun'iy yoritishning afzalliklari quyidagilar :

- Ob-havoga bog'liq emasligi;
- Xonalardan kechki qorong'udan ham foydalanish mumkinligi;
- Xonalarining funkfiyasiga ko'ra sifati va soni bo'yicha yoritish uskunalarini joylashtirish imkoni ;
- Yorug'lik kuchi va rangini boshqarish imkoni .

Landshaft obyektlarida dekorativ yoritish eng ko'p ahamiyatga egadir. Yaxshi bajarilgan dekorativ yoritish yordamida yaxshi ko'rinish effekti va katta hayajonli xarakatlariga erishish mumkin. O'simliklar va gullarning pastdan yoritilishidan foydalanib va yorug'likni masus qoplash bilan qiziq kechki senariyni yaratish mumkin. Demak, hududning landshaft yechimini ishlab chiqishda joyning zarur darajada yoritilishiga ham e'tibor qaratiladi.

Binoyimiz hududida mashinalar uchun alohida avto turargoh ajratilgan bo'lib, bu avto turargohlar avtomobil bozoriga tashrif buyurgan xaridorlarning mashinalari uchun qulay joy hisoblanadi.

ATROF MUHIT EKOLOGIYASI

BO'LIMI

Konsultant: Sattorov Z.

(F.I.SH., imzo)

Bitiruvchi: Isanbiyeva D.

(F.I.SH., imzo)

Joylashgan hududning iqlimi

Yangiyo'l tumani iqlimi keskin kontinentaldir, qishi sovuq, yozi esa issiq va quruq bo'ladi. Iqlim elementlarining tavsifini meteorologiya st-yasi ma'lumotlarining tahlilidan olish mumkin. Yangiyo'l tumani serquyosh shaharlardan. Quyosh nur sohib turadigan vaqt yiliga o'rtacha 2870 soatni tashkil qiladi. Yil davomida esa 110 soatdan (dekabrda) 390 soatgacha (iyulda) o'zgaradi. Quyoshsiz kunlar bir yilda o'rtacha 36 kun. O'rtacha yillik havo harorati esa 13,8 gradusga teng. Tuman ob-havosi yozda issiq va barqarordir. Yilning eng issiq oyi – iyul, o'rtacha havo harorati 27 gradus. Yozgi havo haroratining eng yuqori ko'rsatkichi 44,6 gradusga teng bo'lib, 1997 yil kuzatilgan. Qish ob-havosi nisbatan beqaror va o'zgaruvchan. Eng sovuq oy – yanvardagi o'rtacha havo harorati $-0,6$ gradusga teng, eng past havo harorati esa $-29,5$ gradusga (1930–1931) teng. Yangiyo'l tumani havosining o'rtacha yillik nisbiy namligi 58% bo'lib, qish oylarida 73–74% dan yozda 40–44% gacha o'zgaradi. Eng past nisbiy namlik 5% ga teng bo'lib, 1938yil noyabrda va 1961 yil fevralda kuzatilgan. Yoz oylarida havodagi nisbiy namlik miqdori kunduzlari kam hollarda 80% dan ortadi va havo dim bo'ladi. Masalan, 1970 yilning 21 iyulida havo harorati $19,6^{\circ}$ bo'lganda nisbiy namlikning 90% ga yetgani aniqlangan. Yangiyo'l atmosfera yog'inlarining o'rtacha yillik miqdori 423,4 mm ga teng. Ammo bundan ko'p ham, oz ham bo'lishi mumkin. Masalan, 1969 yilda 802,5 mm va 1916 yilda 206,2 mm yog'in yoqqani kuzatilgan. Atmosfera yog'inlari miqdori yil davomida ham notekis taqsimlangan. Yillik yog'inning kattaroq qismi (305 mm) yilning sovuq qismiga (oktabr–mart), kichik qismi (119,4 mm) esa yilning iliq qismiga (aprel–sentabr) to'g'ri keladi. Yillik yog'inning 41% dan ortiqrog'i bahorda, qolgan qismi esa qishda (36%), kuzda (18%) va yozda (5%) yog'adi. Yangiyo'lda atmosfera yog'inlarining katta qismi (66%) yomg'ir tarzida, 11% qismi qor tarzida va 23% qismi qor-yomg'ir aralash holda tushadi. Qishda qor qoplamining o'rtacha balandligi 14 sm bo'lsa-da, ayrimvaqtlarda 20–50 sm ga ham yetishi mumkin. Qor qoplamining maksimal

balandligi. (54 sm) 1969 yil 31 yanvarda kuzatilgan. Yangiyo'l bo'yicha 1900–2006 yillardagi o'rtacha yillik havo harorati 0,018 gradusga, qish faslidagi o'rtacha havo harorati esa 0,024 gradusga ortganligi, shuningdek, yillik yog'in miqdori ham 60 mm ga ortganligi ma'lum bo'ldi. Tumanning geografik o'rni va yer yuzasining tuzilishiga bog'liq holda yozgi (iyul) shamollarning asosiy qismi shimoldan (20%), shimoli-g'arbdan (19%) va shimoli-sharqdan esadi. Qishda (yanvar) esa, asosan, shimoli-sharqiy (30%) hamda sharqiy (20%) shamollar esadi.

Joylanayotgan hududning atrof-muhiti

Loyihalanayotgan bino katta magistral yo'l bo'yida joylashgan. Binoning sharq tomonida turar – joy binolari joylashgan, g'arb tomonda esa katta magistral yo'l, shimol tomonda kasb – hunar kolleji, janubda esa ekin maydoni joylashgan.

Biologik xilma – xilligi

O'simliklari. Yangiyo'l geobotanik jihatdan efemer va efemeroid o'simliklar bilan tavsiflanadigan adir mintaqasida joylashgan. Bu minataqaga xos bo'lgan tabiiy o'simliklar – rang, qo'ng'irbosh, qoqio't, mayinshuvoq, qo'ypechak, mingbosh, karrak, qo'ziquloq, lolaqizg'aldoq, chitir, kelinsupurgi, oqshuvoq, arpag'on, ajriq, yovvoyi beda kabilar kanal va ariq bo'ylarida, yo'llarning chekkalarida, tepalik va jarliklarning yonbag'irlarida uchrab turadi. Shaharnig o'simlik qoplami asosini madaniy va manzarali o'simliklar tashkil etadi. Mevali daraxtlardan olma, nok, gilos, olcha, o'rik, balx tuti, shotut, shaftoli, xurmo, olxo'ri, uzum, anjir, yong'oq, anor va boshqalar tarqalgan. Manzarali daraxt va buta o'simliklaridan 200 xilga yaqini ma'lum. Ko'p uchraydiganlari archa, akatsiya, zarang, qayrag'och, eman, chinor, jasmin, savr, tobulg'i, majnuntol kabilardir. Turli o'lka va mamlakatlardan keltirib ekilgan noyob o'simliklardan qo'ng'ir eman, lola daraxti, magnoliya, amerika shumtoli, ginkgo biloba, shamshod, tuya, soxta kashtan va boshqalarni sanab o'tish

mumkin. Atirgul, rayhon, gultojixo‘roz, qizil hamda targ‘il lolalar, arg‘ivongul, ko‘zagul kabilar ham manzarali o‘simliklardan.

Hayvonot dunyosi. Shahar hududida 200 xilga yaqin umurtqali hayvonlar, shu jumladan 20 tur sutemizuvchi (uy sichqoni, kalamush, shahar chekkalarida esa sariq yumronqoziq, ko‘rsichqon, dala sichqoni, tulki, bo‘rsiq va boshqalar), qushlarning 170 xili (musicha, chumchuq, jibljibon, mayna, zag‘izg‘on, qorashaqshaq, qora uzunqanot va h.k.), sudralib yuruvchilarning 12 xili (turkiston gekkoni, cho‘l ilonquyruq, ildam kaltakesakcha, suvilon, chiporilon, sariqilonva b.), amfibiyalarning 2 xili (ko‘k qurbaqava ko‘l baqasi) uchraydi.

Bino joylashgan hududning geologiyasi

Tuproqlari. Yangiyo‘l o‘zining geografik o‘rniga ko‘ra, bo‘z tuproqlar zonasida joylashgan. Tumanning bir qismi – Chirchiq daryosining to‘rtinchi va uchinchi qayir usti terrasalarida joylashgan qismi tipik bo‘z tuproqlar bilan tavsiflanadi. Ular shaharning sug‘orish tizimini tashkil qiladi. Bu tuproq insonning xo‘jalik faoliyati ta‘sirida kuchli o‘zgargan. Antropogen yotqiziqlarning qalinligi har yerda har xil. Relyefga bog‘liq holda 4–6 m dan 10–12 mgacha, ayrim joylarda 20 m gacha yetadi. Chirchiq daryosining birinchi va ikkinchi qayir usti terrasalarida esa o‘tloq va sug‘oriladigan o‘tloq tuproqlar tarqalgan.

Gidrografiya. Yangiyo‘l tumanining gidrografiya bir qator sun‘iy kanallar shakllangan. Yangiyo‘l tumanida Jun va Kurkuldak kanali, Chirchiq daryosi mavjud.

Binoning qurilishida va loyihalashda ekologik talablar

Ekologik dizayn deganda joy va foydalanuvchilar joyining dizayni, iqlimi, yerning sathi va undagi punktlarning qay tarzda joylashganligi hamda mahalliy madaniyat hisobga olingan holda loyihalanishi tushuniladi.

Turar joy va jamoat binolarining ekologik xavfsizligi insonning yashashi uchun har jihatdan qulay me'yorlangan sharoitlar va uning salomatligiga hamda ekotizimlarning holatiga salbiy (shovqin, radiatsiya, tebranish va h.k) ta'sir etmasligi ta'minlanganligi bilan aniqlanadi.

So'ngi paytlarda qurilish ekologiyasining muhim yo'nalishlaridan biri, "inson – uy-joy muhitida yashaydi" tizimida ekologik har jihatdan qulay sharoitni yaratish bilan bog'liq savollarni ishlab chiqish bo'lib qolmoqda. Arxitektura va ekologiya birikishida, tabiiy atrof-muhit bilan sun'iy arxitektura ob'ektlarining o'zaro bog'lanishini o'rganuvchi yangi yo'nalish – arkologiya tug'iladi.

Arkologiya (ekologik me'morchilik) – me'morchilikning insonning ijtimoiy va ekologik ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda "yovvoyi tabiat"ni asrab qoluvchi turar joylarni barpo etish hamda ularni optimal ravishda sun'iy ekinzorlar va turli me'moriy shakllar bilan to'ldirish usullarini ishlab chiquvchi yo'nalishlaridan biridir. Arkologiya asosiy vazifasi – sog'lom ekologik "toza" uy-joyni shakllantirishdir.

Mutaxassislarning fikricha, ekologik toza va barqaror uy-joy muhitini shakllantirish bilan bog'liq muammolar nafaqat uy-joy qurilishi sohasidagi mutaxassislarning, balki ekologiklarning ham nazaridan chetda qolmoqda. Atrof – muhit holati va uy-joy sharoitlari o'rtasida uzluksiz bog'lanish mavjud. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining bayonoti bo'yicha "uy-joy atrof-muhit bilan birgalikda bog'langan binolarning keng majmualarini va kommunal qulayliklarni o'zida ifodalagan hamda ekologik omil, ya'ni aynan bir xil bo'lmagan uy-joy hisoblanadi".

O'zbekiston Respublikasida o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab, yirik inshoot va ob'ektlarning loyihalari ekologik ekspertizadan o'tkazila boshlandi. Yirik inshootlar qurilishining maydoni 250-500 gektarni tashkil etadi. Transport vositalari uchun me'yor bo'yicha bir tomonlama harakat

qiladigan yo'ning kengligi esa 6 metr bo'lishi kerak. Transport vositalari qaytadigan yo'ning radiusi 10 metr va boshqa katta hajmli avtomobillar uchun 12 metrdan kam bo'lmasligi lozim.

Qurilish jarayonini tashkil etish talablari quyidagilardan iborat:

- * yonma-yon qurilish jarayonida ishtirok etadigan barcha omillarning bir vaqtning o'zida bo'lishi;
- * tejash- qurilish jarayonida kerak bo'lmagan harakatlarni va usullarni qisqartirish. Masalan: ishchilar soni, mashina va mexanizmlar, asbob – uskunalar va h.k;
- * uzluksizlik – qurilish jarayoni ishtirokchilarining vaqt bo'yicha uzluksiz tartibda o'z vazifasini bajarish bilan baholanadi. Buni ta'minlashni ish unumdorligining oshishiga olib keladi;
- * rejalashtirmoq va ogohlantirmoq – bunda asosiy va qo'shimcha ishlarni qat'iy tartibini va vaqtini belgilaydi;
- * ishchi va uning harakatlanishiga qulay holat- bu mehnat fiziologiyasi qonuniyatlariga asoslanadi;
- * ishchining bajaradigan ishiga muvofiq kelishi – bu ishchining ruhiy, malakaviy, kasbiy bilimlari bo'yicha bajaradigan ish tartibiga mos kelishidir. Amaliyotda kasbiga mehr qo'yish degan ibora ishlatiladi. U ayni yuqoridagi talabdan kelib chiqib qo'llaniladigan tushuncha;
- * mehnat tezligining eng qulayligi – bu birlik bajariladigan ishga eng kam aqliy va jismoniy sarfini ishlatish bilan erishiladi, mahsulot yetishtiradi.

Qurilishga maydon tanlash bo'yicha quyidagilarga ahamiyat berilishi lozim:

- * tabiiy (topografik, geologik, iqlim) sharoiti;

- * transport sharoiti;
- * ishlab chiqarish bilan asosiy va texnologik bog'lanish;
- * qurilish uchun yaroqli yer maydoni tanlanishi;
- * qurilish maydonining baland pastliklari, geologik va gidrologik suv va energiya ta'minoti;
- * qurilish maydonini magistral transport yo'llari bilan bog'lovchi yo'llar mavjudligi;
- * qurilish mumkin bo'lgan binoning rivojlanishi va istiqboli.

Binoning ekologik xavfsizligi

Aholining yashashi uchun ekologik xavfsizlikning mezonlaridan kelib chiqib, uy-joylarda har jihatdan qulay mikroiklimni ta'minlanishi arxitektura qurilish loyihalashda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Binolarning ichki muhitida har jihatdan qulay mikroiklimni ta'minlanishi bilan bir qatorda binoning qurilishi chegarasida ham har jihatdan qulay mikroiklim tartibini saqlash lozim.

Mikroiklim ostida turar joy binolarining ichki muhitlari hisobga olingan holda qurilish maydonlarida shakllanadigan o'ziga xos iqlim sharoitini tushunish lozim

Loyihalashda binolarning insolyasiyasiga, ya'ni to'g'ri quyosh nurlari bilan yuzalarining nurlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Inson uchun to'g'ri quyosh nurlari ko'rinishiga va sochiladigan ko'rinishga o'xshagan qadrlı biologik tabiiy yorug'lik bebahodir. Tabiiy yorug'lik – issiq infraqizil va ultrabinafsha nurlarini turar joylarga tarqalishini bajaradi, organizimlarda moddalar almashinuvini boshqaradi va uning noqulay omillarga ta'siri immunitetini oshiradi hamda psixologik hissiyotlar holatini yaxshilaydi.

Taklif sifatida berilayotgan ushbu loyiha ya'ni "Yangiyo'l tumani zamonaviy avtomobil bozorining dizayn konsepsiyasi" atrof- muhitga zarar yetkazmaydi. Atrofda kislorod miqdorini ko'paytirish shu bilan birga insonlarga estetik zavq berish uchun atrofda yashil hududlar tashkil etilgan, turli xildagi daraxtlar o'tqazilgan. Toshkent viloyati iqlimi keskin kontinental bo'lganligi sababli bu hududda yashil maydonlar, daraxtlar ko'paytirilgan. Bu hududdagi landshaftga, daraxtlarni ko'paytirish albatta maqsadga muvofiqdir.

Ushbu "Yangiyo'l tumani zamonaviy avtomobil bozorining dizayn konsepsiyasi" loyihalanayotganda tabiatga zarar yetkazmaslikka alohida e'tibor qaratildi.

Atrof – muhit tozaligi bu butun jahon muammosidir. Har bir inson o'z faoliyati davomida atrof-muhitga befarq bo'lmasigi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Meyoriy hujjatlar:

1. SHNK 2-08. 02-09. "Jamoat binolari va inshootlari"

2. KMK 2-03. 10-95. “Tomlar va tomqoplamalar”
3. KMK 2.01.03-96. “Zilzilaviy hududlarda qurilish”
4. KMK 2. 07.

Asosiy adabiyotlar:

1. A.Karimov. “Jaxonmoliyaviy-iqtisodiyinqirozi, O’zbekistonsharoitidaunibartarafetishyo’llarivachoralari” Toshkent “O’zbekiston” nashiryoti 2009 y
2. “Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari” Toshkent., 2009. X.M.Ubadullayev, Inag’omova M.M
3. Арх. Проектирование общественных зданий и сооружений. Москва.Стройиздт. 1985г.
- 4.«Ландшафтный дизайн» Ростов-на – Дону. 2003г.
- 5.Н.Я.Крижанновская «Основы ландшафного дизайна» Ростов на Дону. 2005г.

Internet saytlari:

www.olympic.uz

www.davarx.uz

www.wikipedia.uz

www.news.uzreport.uz



ТАСИ-АФ-кафедра «ЛДИ»

ОТЗЫВ

На дипломный проект Исонбиева Дамшрабауржандовна
Поступившего на АФ ТАСИ в 2014 году и окончив 4 полный курс
бакалавра

в 20 18 году. Дипломный проект бакалавра каф. «Ландшафтный дизайн и
интерьер» выполнен на тему: Застава вей

Автомобильной разорившей дизайн.
Во время работы над дипломным проектом выпускник

Проявил себя Одобрим, интизомим.
Башмаша и дикимашаута Эгза.


Дипломный проект выполнен Диплом Д.Н.А.А. Бама-
рингон бархабушмим
ва баблур маважуд.

Кафедра «ЛДИ» оценивает работу выпускника

Над дипломным проектом баллом 100%.

Зав.каф. «ЛДИ»

Руководитель ДП



Матниязов З.Э.

Бахаева У.М.